



**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ANTROPONIMLARNING
LINGVOMADANIY. JIHATDAN TAHLILI**

Mirzayeva Nargiza Sirojiddinova

*Zarmed universiteti assistent o'qituvchisi
mnargiza792@gmail.com*

Annotatsiya: Annotatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari ularning jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy holati, tarixiy taraqqiyoti va xalqning madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida ishlatiladigan shaxs nomlarining kelib chiqishi, ularning semantik va funksional o'ziga xosliklari tahlil qilinadi. Har bir xalqning nomlash ananalari va ularning jamiyatdagi o'rnini qiyosiy tahlil qilinib, antropologik, etnolingvistik va lingvomadaniy jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Antroponim, lingvomadaniyat, sotseolingvistika, nomlash ananalari, etnolingvistika, semantika, madaniy meros.

Kirish

Antroponomika (yun.anthropos-odam, onyma-nom)- bu onomastika fanining inson nomlarini o'rganuvchi bo'limi bo'lib, kishi ismlari, ota ismlari (otchestvo) familiyalar, laqab va taxalluslar kabi antroponimlar deb ataluvchi nom birliklarini tadqiq qiladi. Kishi ismlari jamiyatda identifikatsiya vositasi bo'lishi bilan bir qatorda ular xalqning tarixi, madaniyati, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlar, diniy e'tiqodlarini aks ettiruvchi eng qadimiy leksik birliklar hisoblanadi. Antroponimlarni ma'lum bir xalqning orzu intilishlari, istaklari, hayot tarzi, g'oyalarining ko'zgusi bo'lib, g'oyat rang-barang mazmunlarni o'zida ifoda etadi. Shu sababdan ismlarni o'rganish orqali muayyan xalqning til tarixi, urf-odati, ijtimoiy hayoti shakllanishi haqida asosli ma'lumotlar olish mumkin.

Ingliz antroponimlarining ma'nolari har doim ham mamlakat tarixi bilan bog'liq emas, ularda kelt qabilalari, Franko- Normanlar va Anglo-Sakson qabilalari ta'sir ko'rsatishgan. Qadimda insonga berilgan ismda sehrli ma'no bor deya ishonishgan, insonning tashqi xususiyatlari, xarakteriga asoslanib, baxtli hayot tilsimi sifatida qaralgan. Shuning uchun aksariyat ismlar "baxt", "sog'lik", "boylik" ma'nolarini ifodalovchi so'zlar kishi ismlari sifatida tanlangan.

Shuningdek **antroponimlarda grammatik shaxs munosabatlari bo'lib**, o'zbek tilidagi erkak ismlari asosan mardlik, oliy qadr -qimmat, shon- shuxrat, Xudo bilan bog'liqlik ma'nosida diniy yoki tarixiy buyuk shaxslar nomlariga asoslanib tanlangan bo'lsa: Bahodir (botir, pahlavon), Arslon (sher, kuchli),



Iftixor (faxr, ulug'lash), Ataulloh (Allohning ismi), Muhammad (payg'ambar ismi), Humoyun (tarixiy shaxs), tug'ma nuqson (Ochilboy), ayollar ismlari odatda nafosat, go'zallik, baxt, iffat, latofat olijanoblik kabi ma'nolarda ifodalanadi: Gulnora (anordan go'zal), Zebo (go'zal), Munisa (samimiy, do'stona), Nargiza (gul nomi), Farzona (bilimli, donishmand), Zahro (yaltiroq, chaqnoq) kabi. Ingliz tilshunosligida erkak ismlari jangavorlik, jasurlik, kuch qudrat, qat'iyat ma'nolarini ifodalasa: Charli (er, odam), Oliver (armiya), Uilyam (iroda, orzu), Rayli (mard, jasur), ayollar ismlari esa romantik ma'no va muloyimlik, go'zallik haqida madh etgan: Xazer (veresk guli), Lily (nilufar guli), Ifa (go'zallik), Grace (lutf, marhamat).

Shuningdek, globalizatsiya jarayoni har ikki til antroponimikasiga ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbek tilida chet el ismlarining ko'payishi, ingliz tilida esa qisqartma va zamonaviy ismlarning paydo bo'lishi bunga misol bo'la oladi.

Badiiy matnlarda antroponimlar matnning mazmunini ochish, personajlarni jonlantirish, ularning xarakterini ko'rsatish, muhitni yaratish va muallif g'oyalarini ifodalash uchun muhim vosita bo'lib, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda o'rganiladi, ularning tarjimasi murakkabligi, lingvokulturologik xususiyatlari va kommunikativ funksiyalari tahlil qilinadi. Nomlar matnning chuqurroq ma'nolarini va muallifning g'oyaviy qarashlarini yashirin tarzda ifodalaydi. Ism tanlash ham bir mahoratdir. Har bir yozuvchining o'z asar qahramoniga ism tanlashida o'ziga xos xususiyatlari bor. Masalan, Abdulla Qodiriy bosh qahramonlariga Otabek "k" harfi bilan tugaydi, Kumush "K" harfi bilan boshlanadi, Anvar "r" harfi bilan tugaydi, Ra'no "R" harfi bilan boshlanuvchi ismlar tanlagan. Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasidagi bosh qahramon Qobil bobo obrazi ismning naqadar to'g'ri tanlanganligi, ismi jismiga monandligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni bu obrazda soda, kamtar, mo'min, qobil kishi tasvirlangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, xalqimizda ism tanlashda urf-odatlar, ananalar ham inobatga olinadi. Bunga misol tariqasida A. Qahhorning "Bemor" hikoyasidagi Sotiboldi obraziga ushbu nom berilishi ham bejiz emas, uning zahirida xalq urf-odatlarini yaqqol sezish mumkin. Bu ismni paydo bo'lishi chaqaloqni "sotib olish" udumini ado etish bilan chambarchas bog'liqdir. O'tmishdan farzandlari turmasdan nobud bo'laveradigan o'zbek oilalarida "sotib olish" odatiga katta umid bo'g'lashgan. Bu odatga ko'ra, bola tug'ilgach xoh o'g'il, xoh qiz farzand bo'lsin, tarozining bir pallasiga go'dak ikkinchi pallasiga esa ozuqa solinadi. Ular og'irligi tenglashtiriladi va Doya xotin bilan uy egasi (bolaning onasi) o'rtasida o'sha udum bilan aloqador dialogic ko'rinishdagi so'zlar aytiladi va bola sotib olingan hisoblanadi.

E. Qilichov o'z tadqiqotlarida antroponimlarning stilistik qo'llanilishi haqida o'rganadi. Yozuvchi (S.Ayniy) asarlaridagi antroponimlar



tasvirlanayotgan voqea mazmuniga mos holda uni badiiy aks ettirish uchun xizmat qilgan. Masalan, Sadriddin Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" qissasidagi antroponimlar asarda obrazlarni jonlantirish, ularning ijtimoiy mavqeini ko'rsatish, mahalliy muhitni yaratish va uslubiy rang-baranglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi; bu nomlar orqali sudxo'rning qiyofasi, xalqning Buxoro amirligi davridagi hayoti, xarakterlari va ijtimoiy munosabatlari yorqin ochib beriladi, ayniqsa, personaj nomlari asosan Sharqona bo'lib, o'sha davrga xos nomlar (masalan, Qori, Hoji, boy, mirza) qo'llanilgan. Asardagi deyarli barcha antroponimlar o'ziga xos va mos tarzda ma'no anglatgan. Asarning bosh qahramoni Qori ishkambaga "ishkamba" (hayvon oshqozoni) ta'rifini berish orqali yozuvchi uning qanchalik xasis, ochko'z, sudxo'r ekanligiga izoh bergan. G'. G'ulom asarlaridagi Ko'kan, Yodgor, Shum bola kabi qahramonlar ismlarida muayyan badiiy jihatlarni kuzatish mumkin. Masalan, "Ko'kan" poemasida shoir ushbu qahramonning o'z fikriga ega emasligini o'quvchiga yetkazib berish maqsadida ko'kan ("Ko'kanlash"- hayvonning oyog'ini tushovlash) so'zidan foydalanadi. Poemada qahramonning erki o'z qo'lida emasligi uning ismi orqali izohlangan. Shuningdek, antroponimlarga o'z o'rnida jamiyat, tarixiy rivojlanish, din ham katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tarixda hech bir kambag'al kishi, hizmatkor yoki qulning farzandiga shoh, mirzo, bek, boyvachcha, xon, kabi elementlar qo'shilmagan.

Ingliz tilida shaxsiy ismlar qisman qadimgi yunon va rim mifologiyasidan olingan deyish mumkin, chunki qadimgi madaniyat ingliz tiliga va Yevropa xalqlarining boshqa tillariga ta'sir ko'rsatgan. Masalan: Gerkulets mehnati (qahramonlik, jasorat, qiyinchiliklar bilan bog'liq qiyin ish), bu yerda Gerkules qadimgi Rim mifologiyasining qahramoni. Asarlardagi qahramon nomlariga tanlangan ismlar ingliz adabiyotida ham ma'nosi bilan bog'liqlik jihatlari bor. Masalan, Jack Frost(Santa Klaus), bu yerda Frost sovuq, sovuq ob-havo va derazalardagi sovuqdan chizilgan naqashlarni eslatuvchi qahramon. Union Jack (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligining davlat bayrog'I), Bu nom 1604- yilda paydo bo'lgan, undagi Jack nomi britaniyalik dengizchilar bayrog'ining nomi hisoblangan. Jek va Gill (Jek va Jill, o'g'il va qiz ismlari, sevishib qolgan juftlik), bu 18-asr bolalar qo'shig'iga asoslangan frazeologik birlik bo'lib, birinchi marta 1760- yillarda ingliz bolalar adabiyoti nashriyotchisi Jon Nyuberning "Ona g'ozning ertaklari" to'pmamida foydalanilgan.

Xulosa

Antroponimlar atoqli otlarning bir qismi sifatida til lug'at sistemasida o'ziga xos o'ringa ega.



- Har ikkala tildagi antroponimlar murakkab, shu bilan birgalikda qiziqarli lingvistik hodisa hisoblanadi. Antroponimlarning shakllanishi, o'zgarishi va rivojlanishi xalqning paydo bo'lishi, uning turmush tarzi, dini, istak va hoxishlari, dunyoqarashlarini o'zida aks ettiradi. Har ikkala tilda ham nomlar diniy (Muhammad, Peter), geografik (London, Toshkent), kasb (Smith/Temirchi, Baker/Nonvoy), fe'l-harakat (Walker/Yuruvchi) kabi manbalardan olingan. O'z nomi bilan bog'liq ma'no anglatish (motivatsiya) umumiydir (masalan, "qahramon", "baxtli").
- Leksik-semantik jihatdan Har ikkala tilda ham nomlarning ma'nosi, semantik qatlamlari o'rganiladi.

ADABIYOTLAR

1. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. Toshkent: "Fan," 2013, p. 8
2. Begmatov E. A. "Antroponimiyaning tadqiq qilishning sotsiolingvistik aspekti. Toshkent:"O'zbek tili va adabiyoti,"2011
3. Begmatov E. A.Kishi nomlarining ma'nolariga doir. Toshkent .- O'zbek tili va adabiyoti .1992,2
4. Begmatov E. A Nomshunoslikning tadqiq yo'llari . Toshkent.O'zbek tili va adabiyoti.1992
5. 5.Ne'matov X. Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.Toshkent. "Ma'naviyat,1996
6. Xolmirzayev Sh.Ijodkor adolatli bo'lishi kerak! O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2012 yil, 12.
7. Qilichov E. Ayniy asarlarida antroponimlarning stilistik xususiyatlari. Toshkent. O'zbek tili va adabiyoti. 1978
8. Merriam-Webster. (2020). "Anthroponym." In Merriam-Webster Dictionary. Retrieved from www.merriam-webster.com
9. Norrick, N. R. (2004). "Names, Nicknames, and their Functions in Society." Names, 52(3), 157-170.
9. Uz.m.wikipedia.org